HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

CLASSIFICATION CRITERIA AND FUNCTIONAL-SEMANTIC PROPERTIES OF LINGVOKULTUREMEMES: THEORETICAL APPROACHES AND COMPARATIVE ANALYSIS

Sattorova Maftuna Shavkatovna
PhD student of Bukhara State University
smaftuna484@gmail.com

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of lingvokulturememe, its role in lingvokulturememe, and the classifications proposed by various scientists. Also, the semantic, functional, and structural properties of lingvokulturememes are highlighted, and their role in expressing national-cultural information is revealed. During the study, the views of V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, V.N. Teliya, G.D. Tomakhin and other scientists are analyzed comparatively.

Key words: lingvokulturememe, lingvokulturememe, cultural code, national mentality, classification, semantics, cultural concept.

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon tilshunosligida antroposentrik paradigma ustuvor yo‘nalishga aylandi. Ushbu yondashuv tilni inson omili, uning tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Tilni milliy ruh va madaniyat bilan bog‘liq holda talqin qilish g‘oyasi Wilhelm von Humboldt tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u tilni “xalq ruhi”ning ifodasi sifatida izohlaydi [1]. Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat masalasi Edward Sapir hamda Benjamin Lee Whorf tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik nisbiylik nazariyasida chuqur asoslab berilgan [2]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, insonning dunyoni idrok etishi til orqali shakllanadi. Keyingi davr lingvistikasida til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish alohida yo‘nalish - lingvokulturologiya sifatida shakllandi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganuvchi lingvokulturologiya fanida lingvokulturema markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Lingvokulturema milliy madaniyatning til birliklari orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha XX asrning so‘nggi choragida rus tilshunosligida shakllanib, keyinchalik boshqa lingvistik maktablarda ham keng qo‘llanila boshladi. Bu yo‘nalishda V.Vorobyov, V.A. Maslova, V.N. Teliya, G.D. Tomaxin, Y. Stepanov, Y. Kubryakova va A.Vejbitskaya kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Ular lingvokulturemalarni madaniy konseptlar tizimi sifatida talqin qilib, tilning madaniyatni aks ettiruvchi mexanizm ekanini asosladilar. O‘zbek tilshunosligida ham ushbu yo‘nalish izchil rivojlanmoqda. Shavkat Safarov tomonidan kognitiv tilshunoslik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa, Abduaziz Nurmonov antroposentrik yondashuvni milliy tilshunoslikka tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi [4]. Shuningdek, M. Ergasheva, H. Dadaboyev, N. Mahmudovlar tomonidan til va madaniyat munosabati o‘zbek milliy tafakkuri asosida keng yoritilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot lingvokulturema fenomenining nazariy talqinlari va tasnifiy mezonlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda tavsifiy, qiyosiy hamda lingvokulturologik tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, lingvokulturema tushunchasining ilmiy adabiyotlarda berilgan izohlari o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari tizimlashtirildi. Shuningdek, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, V.N. Teliya va G.D. Tomaxin tomonidan ilgari surilgan tasnifiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, lingvokulturemalarni guruhlashning asosiy mezonlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida turli madaniyatlarga xos til birliklarining semantik va funksional xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil etildi. Ayniqsa, milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi leksik, frazeologik va paremiologik birliklar misolida lingvokulturemalarning struktur hamda semantik tabiati yoritildi. Tadqiqot materiali sifatida lingvokulturologiya va madaniyatlararo

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

kommunikatsiya sohasidagi fundamental ilmiy manbalar, monografiyalar hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv lingvokulturemalarning tasnifiy xususiyatlarini kompleks ravishda o‘rganish va ularning nazariy modelini umumlashtirish imkonini berdi.

Muhokama va Natijalar. Lingvokulturemalar - bu til birliklarida milliy madaniyatning aks etishi, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, mentaliteti va dunyoqarashi bilan shakllangan konseptual birliklardir. Ular til va madaniyat o‘zaro ta’sirining asosiy ko‘rinishi bo‘lib, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistika va kognitiv lingvistika kesishmasida o‘rganiladi. Lingvokulturemalar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

-milliy-madaniy ma’no yukiga egaligi;

-tarixiy va ijtimoiy tajribani aks ettirishi;

-konseptual xarakterga ega bo‘lishi;

-kommunikativ jarayonda faol qo‘llanilishi. Shu jihatdan lingvokulturemalar tilning nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi tizim ekanligini ko‘rsatadi. Lingvokulturema semantikasining asosiy xususiyatlarini ham ikki muhim jihat orqali tushuntirish mumkin:

1. *Sigmatik jihat.* Bu jihat lingvokulturemaning til tashqarisidagi madaniy voqelik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ya’ni lingvokulturema faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini emas, balki shu so‘z yoki ifoda orqali anglashiladigan milliy-madaniy mazmunni ham o‘z ichiga oladi. U xalqning urf-odati, qadriyatlari, tarixiy xotirasi, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi.

2. *Madaniy-ma’noviy jamlash funksiyasi*. Lingvokulturema til vositasi orqali keng madaniy ma’lumotni ifodalay oladi. Bitta so‘z, so‘z birikmasi, gap yoki hatto butun matn ortida xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlari, his-tuyg‘ulari va madaniy tajribasi mujassam bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan lingvokulturema til va madaniyat birligida namoyon bo‘ladi.

Lingvokulturemaning asosiy ma’nosi sigmatik jihat bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Chunki u muayyan xalq madaniyati uchun ahamiyatli bo‘lgan predmet, hodisa yoki tushunchani ifodalaydi. Bunday birliklar xalqning madaniy ongida muhim o‘rin egallaydi va ko‘pincha milliy qadriyat sifatida qabul qilinadi. Lingvokulturemaning qo‘shimcha ma’no qatlami esa shu birlik bilan bog‘liq tasavvurlar, assotsiatsiyalar, baholar va hissiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bu ma’nolar ma’lum bir madaniyat vakillari ongida shakllanadi. Ular xalqning narsa-hodisalarga qanday munosabatda bo‘lishini, ularni qanday qadrlashini va qanday talqin qilishini ko‘rsatadi[7].

Masalan, ingliz madaniyatida *“tea”* so‘zi faqat “choy” ma’nosini bildirmaydi. U inglizlar hayotida osoyishtalik, muloqot, odob, kundalik tartib va an’anaviy turmush tarzini ham ifodalaydi[8]. Ayniqsa, *“afternoon tea”* tushunchasi ingliz madaniyatida muayyan vaqt, muomala madaniyati va ijtimoiy an’analar bilan bog‘liq. Demak, bu so‘z lingvokulturema sifatida til va madaniyat birligini ko‘rsatadi. Yana bir misol - *“gentleman”* so‘zi. Lug‘aviy jihatdan u “janob” yoki “tarbiyali erkak” degan ma’noni bildiradi. Ammo ingliz madaniyatida bu tushuncha odob, vazminlik, hurmat, ijtimoiy madaniyat va axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq. Shuning uchun “gentleman” faqat shaxsni emas, balki ingliz jamiyatida qadrlanadigan xulq-atvor modelini ham ifodalaydi. Shuningdek, *“pub”* so‘zi ham oddiy “ichimlik ichiladigan joy” ma’nosidan kengroq mazmunga ega[9]. Ingliz madaniyatida pub odamlar uchrashadigan, suhbatlashadigan, dam oladigan va ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadigan joy sifatida tasavvur qilinadi. Shu sababli u ingliz turmush tarzining muhim madaniy belgilaridan biridir.

O‘zbek madaniyatida *“mahalla”* so‘zi kuchli lingvokulturema hisoblanadi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Lug‘aviy jihatdan u yashash hududi yoki jamoani bildiradi. Ammo madaniy jihatdan mahalla o‘zaro yordam, qo‘ni-qo‘shnichilik, mehr-oqibat, nazorat, tarbiya va ijtimoiy birlik ramzidir. “Mahalla” so‘zini eshitgan o‘zbek kishisi ongida faqat joy emas, balki butun bir ijtimoiy-madaniy tizim gavdalanadi. Yana bir muhim misol -*“non”* so‘zi. U oddiy oziq-ovqat nomi bo‘lsa-da, o‘zbek madaniyatida rizq, baraka, hurmat va muqaddaslik ma’nolarini ham anglatadi. Nonni yerga tashlamaslik, uni e’zozlash, dasturxonda nonning alohida o‘rin tutishi bu so‘zning madaniy mazmunini kuchaytiradi. Demak, “non” o‘zbek xalqining qadriyati va dunyoqarashi bilan bog‘liq lingvokulturemadir. *“Dasturxon”* so‘zi ham shunday birliklardan biridir. U faqat ovqat qo‘yiladigan mato yoki joy emas. O‘zbek madaniyatida dasturxon mehmondo‘stlik, saxovat, hurmat, oilaviy birlik va muloqot ramzi hisoblanadi. “Dasturxon yozmoq” iborasi ham oddiy ovqatlanishni emas, balki mehmon kutish va hurmat ko‘rsatish madaniyatini bildiradi. Yana bir misol — *“sumalak”*. Bu so‘z bahor, Navro‘z, yangilanish, ezgu niyat, jamoaviylik va ayollar hamjihatligi bilan bog‘liq. Sumalak tayyorlash jarayoni o‘zbek madaniyatida faqat taom pishirish emas, balki marosim, urf-odat va ijtimoiy birlik ifodasidir.

Lingvokulturemalar tasnifi ularning mazmuni, shakli va madaniy yukiga qarab turlicha yondashuvlar asosida aniqlanadi. Birinchi navbatda, lingvokulturemalarning mazmuniga ko‘ra tasnifidan boshlaydigan bo’lsak, birinchi turi bu - milliy-madaniy lingvokulturemalar ya’ni xalqning umumiy mentalitetini ifodalovchi tushunchalar: or-nomus, mehmondo‘stlik, vatanparvarlik, qon-qarindoshlik, adolat. Milliy-madaniy lingvokulturemalar - bu ma’lum bir xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, mentaliteti va dunyoqarashi til birliklarida aks etgan konseptual madaniy birliklardir. Ular xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, diniy e’tiqodlari, marosimlari, an’analari va ijtimoiy me’yorlarini til orqali ifodalaydi. Bu lingvokulturemalar millatning identitetini belgilovchi ramzlar, tushunchalar, tasavvurlar va so‘zlarda mujassam bo‘ladi. Lingvokulturemalarning navbatdagi turi etno-kulturologik birliklar - millatning tarixiy hayoti va urf-odatlariga xos birliklar. Etno-kulturologik lingvokulturemalar - bu ma’lum bir xalqning tili orqali namoyon bo‘ladigan milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, an’analari, urf-odatlari va mentalitetini aks ettiruvchi madaniy birliklardir. Ular til va madaniyatning kesishgan nuqtasida shakllanadi va millatning o‘ziga xos identitetini ifodalaydi. Ular xalqning tarixiy tajribasi, e’tiqodi va turmush tarzini til birliklari orqali ko‘rsatadi, frazeologizmlar, maqollar, milliy ramzlar, mifologik obrazlar orqali namoyon bo‘ladi, har bir etnosning o‘ziga xos axloqiy, estetik, ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi, madaniyatlararo muloqotda milliy tafakkur va konseptlarni tushunishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilidagi “mehmonnavozlik”, “katta-kichikka hurmat”, “halollik” kabi konseptlar o‘zbek etno-kulturologik lingvokulturemalarini tashkil etadi. Sotsial-kulturologik lingvokulturemalar - jamiyatning ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy rollarga bog‘liq tushunchalar - lingvokulturemalarning yana bir muhim turi. Sotsial-lingvistik lingvokulturemalar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ijtimoiy guruhlar, ularning mavqei, rollari va muloqotdagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi til-madaniyat birliklaridir. Ular tilning ijtimoiy qatlamlar, kasbiy guruhlar, yosh, jins, maqom, shahar–qishloq farqlari bilan bog‘liq madaniy unsurlarini yoritadi. Ular tilning ijtimoiy differensiyasi: dialektlar, jargonlar, kasbiy terminologiya, yoshlar slengini o’z ichiga oladi, jamiyatdagi status va rol munosabatlarini ifodalaydi: hurmat shakllari, murojaat formulalari, rasmiy va norasmiy uslublar, ma’lum ijtimoiy guruhga xos qadriyatlar, odatlar va muloqot normalarini til orqali ko‘rsatadi, shaxsning ijtimoiy identiteti til orqali namoyon bo‘lishini aks ettiradi. O‘zbek jamiyatida kattalarga “sizlash”, “ota-ona”, “domla”, “akkaxon” kabi hurmat bildiruvchi murojaatlar shular jumlasidandir. Yoshlar orasida keng tarqalgan sleng: “zo‘r”, “bombadir”, “krutoj” va boshqalar ham shular qatoriga kiradi. Kasbiy guruhlarga xos birliklar: shifokorlarda “anamnez”, “terapiya”; qurilishda “smeta”, “proyekt” kabi so‘zlar ham shunday lingvokulturemalardandir. Sotsial-lingvistik lingvokulturemalar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

guruhlararo farqlarni til orqali namoyon etadi, shu orqali tilning ijtimoiy-madaniy tabiatini yoritadi. Bu tasnifga ko'ra ritual va marosim lingvokulturemalari - an'anaviy marosimlar bilan bog'liq birliklar: kelin salom, to'yona, xatna to'yi - oxirgi turdir. Shakliy ifodalanishiga ko'ra lingvokulturemalar til va madaniyatning eng tirik, eng tabiiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi, qadriyati va tafakkur tarzini o'zida mujassam etadi. Leksik lingvokulturemalar oddiy so'z yoki ibora shaklida bo'lsa ham, xalqning hayotiy tajribasini chuqur aks ettiradi. Masalan, "Ko'ngli yo'qni ko'z ko'rmaydi" yoki "Qo'ni-qo'shni tangri yorug'i" kabi iboralar nafaqat fikrni ifodalaydi, balki o'zbek xalqining ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarini ham yoritadi. Paremiologik lingvokulturemalar esa maqol, matal va aforizmlar orqali xalqning donishmandlik xazinasini ko'rsatadi; "Mehmon rizqi bilan keladi" degan naql esa mehmondo'stlik va ishonchning eng yorqin ifodasi sifatida yashaydi. Simvolik lingvokulturemalar ramzlar, ranglar va belgilarda mujassam bo'lib, ular ko'pincha bir qarashda anglashilmaydigan, ammo madaniy ongda mustahkam o'rnashgan ma'nolarga ega: quyosh - nur va ezgulik timsoli, oq rang - poklik belgisi, non esa - mo'l-ko'lchilik va hayot mazmuni sifatida qabul qilinadi. Metaforik modelga asoslangan lingvokulturemalar esa inson tafakkurining eng chuqur qatlamlarini aks ettirib, bizning borliqni qanday idrok qilishimizni belgilaydi; hayotni yo'lga qiyoslash yoki vaqtni oqar suv sifatida tasavvur qilish xalq ongidagi konseptual dunyo manzarasini namoyon etadi. Bu barcha shakllar tilning nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni tashuvchi asosiy mexanizm ekanini ko'rsatadi. Funksional jihatdan lingvokulturemalar xalqning madaniy hayoti qanday ishlashini, uning qadriyatlari, odatlari va nutqdagi o'ziga xos ko'rinishlarini jonli tarzda aks ettiradi. Aksiologik lingvokulturemalar avvalo xalqning eng muhim qadriyatlarini tashiydi - iffat, sharmu-hayo, diyonat kabi tushunchalar o'zbek mentalitetining poydevori bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan axloqiy mezonlarni ifodalaydi. Normativ lingvokulturemalar esa jamiyatning qanday yashashi, odamlar o'rtasida qanday munosabat bo'lishi kerakligini belgilaydi; odoblilik, hurmat, hamjihatlik kabi me'yorlar xalqning ijtimoiy tartibotini shakllantiradi. Kognitiv lingvokulturemalar esa xalqning dunyo haqidagi tasavvurlarini, bilimi va konseptual olamini namoyon etadi - tabiat, vaqt va makon haqidagi qadimiy qarashlar ham shu qatlamga kiradi va ular milliy tafakkurning eng qadimiy qatlamlarini yoritadi[6]. Kommunikativ lingvokulturemalar esa odamlarning bir-biri bilan qanday muloqot qilishini, qanday salomlashish, duo qilish yoki minnatdorchilik bildirishini ko'rsatadi; ular xalqning nutq etiketi, odobi va aloqadagi nozik madaniy jihatlarni o'zida mujassam etadi. Milliy xususiyatlarga ko'ra lingvokulturemalar xalqning madaniy o'ziga xosligini, umumiylik va farqlarini juda tabiiy tarzda namoyon etadi. Universal lingvokulturemalar deyarli barcha xalqlarda uchraydigan, insoniyat uchun umumiy bo'lgan madaniy konseptlar sanaladi. Masalan, "ona" obrazi butun dunyoda mehr, parvarish va himoya timsoli sifatida qadrlanadi, shu bois bu kategoriya millat chegarasidan oshib, umumiy insoniy qadriyatni ifodalaydi. Milliy-spetsifik lingvokulturemalar esa aynan bir xalqning ruhiyatiga, turmush tarziga, tarixiga bog'langan birliklardir. O'zbek xalqidagi osh, atlas, sumalak yoki Navro'z kabi tushunchalar nafaqat taom yoki bayram nomi, balki yuzlab yillik an'analar, marosimlar va ramzlarning mujassam ifodasidir. Regional lingvokulturemalar esa ma'lum hudud yoki etnosning o'ziga xosligini ko'rsatadi; masalan, qo'qoncha do'ppi yoki buxorocha liboslar o'sha mintaqaning estetik didi, qadimiy hunarmandchiligi va mahalliy madaniyatini aks ettiradi. Shu tariqa, bu uch tur lingvokulturemalar madaniyatning umumiylik, milliylik va hududiylik darajalarini bir-biridan ajratishga yordam beradi.

Xulosa. Lingvokulturemalar tildagi madaniy ma'no qatlamlarini ochadigan asosiy nazariy birlik bo'lib, ularning tasnifi lingvistik mazmun, shakl, funksional vazifa va milliy o'ziga xoslikka ko'ra belgilanadi. Har bir lingvokulturema xalqning tarixiy tajribasi, qadriyati va mental olamini o'zida mujassam etadi. Ularni tizimli o'rganish til va madaniyat o'zaro bog'liqligini chuqur anglashga yordam beradi. Lingvokulturema til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

murakkab birlik hisoblanadi. Tadqiqot natijalari lingvokulturemalarni tasniflashda struktur, semantik va funksional yondashuvlar eng ko‘p qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Turli nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili lingvokulturemalarni o‘rganishda kompleks tasnif modelidan foydalanish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Humboldt, W. von. *On Language: The Diversity of Human Language Structure*. Cambridge University Press, 1988.
2. Sapir, E. *Language*. New York: Harcourt, 1921.
3. Whorf, B. L. *Language, Thought and Reality*. MIT Press, 1956.
4. Stepanov, Yu. S. *Konstanty: Slovar russkoy kultury*. Moskva, 1997.
5. Maslova, V. A. *Lingvokulturologiya*. Moskva, 2001.
6. Wierzbicka, A. *Understanding Cultures through Key Words*. Oxford, 1997.
7. Safarov, Sh. *Kognitiv tilshunoslik asoslari*. Toshkent, 2006.
8. Nurmonov, A. *Umumiy tilshunoslik*. Toshkent, 2012.
9. Mahmudov, N., Dadaboyev, H. va boshqalar. *Lingvokulturologiya asoslari*. Toshkent.
10. Woodruff D. Smith, "Complications of the Commonplace: Tea, Sugar, and Imperialism". *Journal of Interdisciplinary History* (Autumn 1992), 259–277.
11. https://www.classeq.co.uk/news/the-great-british-pub
12. ANALYTICAL APPROACHES TO THE RUDYARD KIPLING’S POETRY. (2024). *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, *3*(10), 22-25. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.canrms.53592